



AYRIM XORIJIY DAVLATLARDA POLITSIYA XODIMLARINING MALAKASINI OSHIRISH BORASIDAGI ILG'OR TAJRIBALAR TAHLILI

Ahmedov Islom Baxtiyor o'g'li

Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20376872>


Annotatsiya: Ushbu maqolada MDH davlatlari, xususan, Rossiya va Qozog'iston ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimidagi zamonaviy islohotlar tahlil qilingan. An'anaviy nazariy ta'limdan amaliyotga yo'naltirilgan, interfaol va masofaviy o'qitish usullariga o'tish jarayonlari o'rganilgan. Mashg'ulotlarda imitatsion modellashtirish, "Case-study" usulidan foydalanish hamda xodimlarning psixologik barqarorligi va stressni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, xorij tajribasining eng ilg'or jihatlarini O'zbekiston ichki ishlar tizimiga moslashtirgan holda tatbiq etish bo'yicha xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: ichki ishlar organlari, malaka oshirish tizimi, masofaviy ta'lim, imitatsion modellashtirish, psixologik barqarorlik, interfaol o'qitish, xorijiy tajriba.

Аннотация: В данной статье анализируются современные реформы в системе подготовки и повышения квалификации сотрудников органов внутренних дел в странах СНГ, в частности в России и Казахстане. Изучен процесс перехода от традиционного теоретического обучения к практико-ориентированным, интерактивным и дистанционным методам. Рассматриваются вопросы применения имитационного моделирования, метода «Case-study», а также формирования психологической устойчивости и навыков стресс-менеджмента у сотрудников. Кроме того, даются рекомендации по адаптации и внедрению передового зарубежного опыта в систему внутренних дел Узбекистана.

Ключевые слова: органы внутренних дел, система повышения квалификации, дистанционное обучение, имитационное моделирование, психологическая устойчивость, интерактивное обучение, зарубежный опыт

Abstract: This article analyzes modern reforms in the training and advanced professional development system for law enforcement officers in CIS countries, particularly in Russia and Kazakhstan. It examines the transition from traditional theoretical education to practice-oriented, interactive, and distance learning methods. The study highlights the use of simulation modeling, the "Case-study" method, and the importance of developing officers' psychological stability and stress management skills. Furthermore, the article provides





recommendations for adapting and implementing the best foreign practices into the law enforcement system of Uzbekistan.

Keywords: law enforcement agencies, advanced training system, distance learning, simulation modeling, psychological stability, interactive teaching, foreign experience.

Bugungi kunda MDH davlatlari, jumladan, Rossiya va Qozog'istonda ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish tizimi bugungi kunda jiddiy isloh qilinmoqda. Bu jarayonning asosiy mohiyati shundaki, endilikda eskicha o'qitish qoliplaridan voz kechilib, ko'proq amaliy ko'nikmalarga asoslangan yangicha tizimga o'tilmoqda. *Maqsad* – xodimlarda murakkab va kutilmagan vaziyatlarda tez hamda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishdir. Olib borilgan ilmiy tahlillar shuni tasdiqlaydiki, malaka oshirish tizimi shunchaki vaqti-vaqti bilan o'tiladigan rasmiyatchilik emas. Aksincha, u xodimlarning ham aqliy, ham amaliy salohiyatini uzluksiz rivojlantirib boruvchi eng asosiy poydevor bo'lib xizmat qilishi lozim.

Rossiyalik olimlar P.S.Sichenkov va G.P.Lofovitskaya ta'kidlaganidek, huquq-tartibot idoralari faoliyatining samaradorligi, eng avvalo, malaka oshirish tizimining qanchalik zamonaviy va yangi sharoitlarga tez moslasha olishiga bevosita bog'liqdir¹. Olimlarning fikricha, malaka oshirish jarayoni xodimga shunchaki yangi bilim berish bilan cheklanmasligi, balki unda jamoaviy mas'uliyat va to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qila olish kabi muhim kasbiy-shaxsiy fazilatlarini ham shakllantirishi kerak. Biroq, nazarimizda, bu jarayonda quruq nazariya bilan cheklanib qolish yetarli emas. Asosiy maqsad – xodimning ichki psixologik xohish-istaklari (motivatsiyasi)ni uning xizmat majburiyatlari bilan o'zaro uyg'unlashtiradigan yaxlit bir tizim (mexanizm) yaratishdan iborat bo'lishi lozim.

Rossiya Ichki ishlar vazirligi tizimida malaka oshirish jarayonlarini chuqur o'rgangan huquqshunos olimlar, jumladan B.A.Fedulov, V.A.Morozov va A.A.Levchenko ushbu tizimni rivojlantirishda bir qator muhim omillarga e'tibor qaratishadi. Ularning ta'kidlashicha, malaka oshirish tizimini takomillashtirishda kadrlarga bo'lgan ehtiyojni oldindan ko'ra bilish (prognoz qilish) hamda xodimlarni o'qitish yo'nalishini aniq rejalashtirish kabi boshqaruv usullarining ahamiyati juda katta. Ya'ni, tizim kelajakni to'g'ri bashorat qila olgandagina kutilgan natijani beradi².

¹ Сыченков П.С., Лозовицкая Г.П. Повышение квалификации сотрудников органов внутренних дел Российской Федерации как основа роста их компетентности // Право и государство: теория и практика. – 2021. – №. 10 (202). – С. 151-154.

² Федулов Б.А., Морозов В.А., Левченко А.А. Направления совершенствования управления процессом повышения квалификации сотрудников полиции // Психопедагогика в правоохранительных органах. – 2018. – №. 3 (74). – С. 43-47.





Ushbu olimlar malaka oshirish muassasalarida moslashuvchan boshqaruv tizimini yaratish va vazifalarning asossiz takrorlanishiga chek qo'yish kerakligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, Qozog'istonda ham so'nggi yillarda qabul qilingan hujjatlarga ko'ra, malaka oshirishga nisbatan yondashuv tubdan o'zgardi. Endilikda u shunchaki ma'lum muddatda o'tiladigan majburiy qoida emas, balki har bir mutaxassisning xizmat vazifasiga moslashtirilgan uzluksiz kasbiy ehtiyoj sifatida baholanmoqda.

Biroq, masalaga ilmiy-tanqidiy nuqtai nazardan yondashsak, faqatgina tashkiliy-boshqaruv tizimini o'zgartirish bilan ko'zlangan maqsadga to'liq erishib bo'lmaydi. Ta'lim jarayoni chinakam natija berishi uchun, eng avvalo, tinglovchida (xodimda) bilim olishga va o'z ustida ishlashga bo'lgan ishtiyoqni, ya'ni motivatsiyani uyg'otuvchi omillarni ham tizimga kiritish zarur.

Zamonaviy innovatsion o'qitish modellarining eng yaqqol ko'rinishlaridan biri sifatida masofaviy ta'lim texnologiyalarini e'tirof etish mumkin. Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi Boshqaruv akademiyasi tajribasini tahlil qilgan olim T.X.Djanteyev o'z tadqiqotlarida Moodle va BigBlueButton kabi raqamli platformalar orqali masofaviy o'qitishning qator afzalliklarini keltirib o'tadi³. Uning ta'kidlashicha, o'qitishning bunday shakli xodimlarga o'z asosiy ishidan ajralmagan holda bilim olish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, xizmat safarlari bilan bog'liq ortiqcha iqtisodiy xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Qolaversa, tinglovchilar o'quv materiallarini o'zlashtirishda ma'lum bir vaqt yoki joyga bog'lanib qolmaydilar. Shunday bo'lsa-da, mazkur tizim faqatgina qulayliklardan iborat emas. Uning ham o'ziga yarasha murakkab tomonlari va hali o'z yechimini kutayotgan muammolari borligini esdan chiqarmaslik lozim.

Qozog'iston tajribasida ham masofaviy ta'lim keng qo'llanilmoqda, biroq ularning bu boradagi yondashuvi o'ziga xosdir. Xususan, tergov va surishtiruv xodimlari masofadan turib o'qitilsa-da, asosiy e'tibor kiberjinoyatlarga qarshi kurashga ixtisoslashgan amaliy o'quv laboratoriyalarini rivojlantirishga qaratilmoqda. Boshqacha aytganda, qo'shni davlat mutaxassislari raqamli texnologiyalardan faqatgina dars o'tish vositasi (platformasi) sifatida emas, balki aynan o'rganish va tadqiq qilish obekti sifatida foydalanishmoqda.

Bu holat MDH davlatlarida malaka oshirish tizimi eski qoliplardan voz kechib, zamonaviy jinoyatchilikka qarshi bevosita amaliy kurashishga moslashayotganini ko'rsatadi. Fikrimizcha, kadrlar tayyorlashda Rossiyaning

³ Джантеев Т.Х. Дополнительное профессиональное образование в форме повышения квалификации в образовательных организациях системы МВД России дистанционно // Академическая мысль. – 2024. – №. 4 (29). – С. 63-67.





masofaviy-nazariy tajribasi hamda Qozog'istonning amaliy-kiber yondashuvini o'zaro birlashtirish (sintez qilish) eng samarali gibrid ta'lim tizimini yaratishga xizmat qiladi.


Nazariy bilimlarni amaliyotga joriy etishning eng ilg'or va o'zini oqlagan usullaridan biri bu imitatsion (vaziyatli) modellashtirishdir. Tadqiqotchi olimlar N.P.Bakulin va V.B.Kvasovlar Rossiya Ichki ishlar vazirligi Tyumen malaka oshirish instituti misolida yo'l-patrul xizmati xodimlarini jismoniy kuch ishlatishga tayyorlashning o'ziga xos taktik metodikasini ilmiy asoslab berganlar⁴. Mazkur metodika amaliy mashg'ulotlarni keng va qulay sport zallarida emas, balki bevosita xizmat avtomashinasining tor salonida o'tkazishni talab qiladi. Bunda xodimlar haydovchining to'satdan qarshilik ko'rsatishi yoki sovuq qurol bilan hujum qilishi kabi haqiqiy xavfli vaziyatlarda to'g'ri va tezkor harakat qilishga o'rgatiladi. Ya'ni, mashg'ulotlar imkon qadar real hayotiy sharoitlarga yaqinlashtiriladi.

Olimlarning tadqiqotlari shuni tasdiqlaydiki, aynan mana shunday real sharoitlarga moslashtirilgan mashg'ulotlar tufayli xodimlarning favqulodda (ekstremal) vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va jismoniy kuch ishlatish samaradorligi 26 foizga oshgan. Fikrimizcha, ushbu tajriba malaka oshirish tizimining faqat "qog'ozdagi" quruq nazariyadan iborat bo'lib qolishiga chek qo'yadi. Aksincha, u xodimlarning haqiqiy jangovar tayyorgarligini ta'minlashda eng maqbul ilmiy-amaliy yechimdir. Sababi, kutilmagan xavf yuzaga kelganda xodimning taktik ongi va mushaklar xotirasi bir vaqtda, avtomatik tarzda ishlashi kerak. Bunday muhim ko'nikmani esa faqatgina haqiqiy xizmat sharoitlarini sun'iy yaratish (modellashtirish) orqali shakllantirish mumkin.

Zamonaviy ta'limning navbatdagi muhim qadami sifatida o'quv jarayoniga interfaol va tahliliy usullarni keng joriy etish lozim. Xususan, "**Case-study**" (aniq bir jinoyat yoki huquqbuzarlik holatini guruh bo'lib tahlil qilish) metodi bu borada juda samaralidir. U xodimlarni qonunlarni shunchaki quruq yodlashdan xalos etib, ularni mantiqiy fikrlash orqali amaliyotda to'g'ri va tezkor qo'llashga o'rgatadi.

Shu bilan birga, xodimlarni real tajriba almashish maqsadida vaqtincha boshqa ilg'or idora yoki hududlarga ishga yuborish, ya'ni "**Secondment**" usuli ham yaxshi natija bermoqda. Masalan, Qozog'istonda aynan hayotiy vaziyatlar (keysalar) va "**mini-tergov**" mashg'ulotlari orqali xodimlarning voqea joyidan raqamli dalillarni to'plash va to'g'ri xulosalar chiqarish ko'nikmalari jadal rivojlantirilmoqda. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda malaka oshirish jarayoni passiv tarzda, shunchaki ma'ruza eshitishdan iborat emas. U tinglovchi va

⁴ Bakulin N.P., Kvasov V.B. Training of traffic police officers in the use of physical force in situations of operational service activities // Theory and Practice of Physical Culture. – 2024. – №. 11. – C. 42.





o'qituvchining o'zaro hamkorlikdagi faol aqliy va taktik mehnatini talab qiluvchi haqiqiy amaliy maydonga aylanib ulgurgan.

Kadrlarni tayyorlashda faqatgina huquqiy va texnik bilimlar berish bilan cheklanib qolish mutlaqo yetarli emas. Ichki ishlar organlari xodimining psixologik jihatdan barqarorligi hamda ma'naviy-axloqiy saviyasi ham xizmat faoliyatida hal qiluvchi o'rin tutadi.

Ye.A.Yevdokimova va I.V.Lamashning tadqiqotlari⁵ shuni tasdiqlaydiki, xodimning ijtimoiy intellekti (odamlar bilan to'g'ri muloqot o'rnata olish qobiliyati) va yuqori ta'lim darajasi juda muhim omildir. Aynan shu jihatlar xodimning fuqarolar bilan o'zaro munosabatlarida o'z mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish ehtimolini keskin kamaytiradi.

Ish jarayonidagi kuchli ruhiy zo'riqish (stress) va turli bosimlar xodimning xatoga yo'l qo'yishiga yoki nojo'ya xatti-harakatlar sodir etishiga sabab bo'lishi ilmiy jihatdan isbotlangan haqiqatdir. Shu bois, malaka oshirish kurslarining o'quv dasturlariga inson psixologiyasi, **stressni boshqarish (stress-menejment)** hamda fuqarolar bilan to'g'ri muloqot qilish madaniyati kabi yo'nalishlarni kiritish bugungi kunda o'ta dolzarb masaladir.

Bu boradagi asosiy xulosamiz shundan iboratki, xodim qanchalik kuchli va jismonan mukammal tayyorgarlikka ega bo'lmasin, agar unda ruhiy barqarorlik (ijtimoiy-psixologik immunitet) yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, u jamiyat xavfsizligini ta'minlashdek mas'uliyatli vazifani to'laqonli bajara olmaydi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda MDH davlatlarida (xususan, Rossiya va Qozog'istonda) ichki ishlar xodimlarining malakasini oshirish tizimidagi islohotlar asosan **uchta yo'nalishga qaratilgan**: 1) ta'limga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish; 2) o'quv jarayonini kundalik xizmat amaliyoti bilan chambarchas bog'lash; 3) hayotiy vaziyatlarni sun'iy yaratib (modellashtirib) o'qitish. Fikrimizcha, O'zbekiston ichki ishlar tizimini rivojlantirishda mazkur xorijiy tajribalarning eng foydali va maqbul jihatlarini milliy qonunchiligimiz hamda amaliyotimizga moslashtirgan holda tatbiq etishimiz zarur.

⁵ Евдокимова Е.А., Ламаш И.В. Полицейское образование и образованность полицейских: зарубежный опыт // РЕМ: Psychology. Educology. Medicine. – 2019. – №. 2. – С. 64-89.

